


2019-yil yanvar-aprel oylarida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Xizmatlar sohasining rivojlanganligi - jamiyatning muvaffaqiyatli rivojlanishining asosidir. Xizmatlar sohasining o'sish omili bo'lib, ijtimoiy ehtiyojlar tizimidagi yuz beradigan o'zgarishlar hisoblanadi. Texnika, texnologiya, ishlab chiqarish tuzilmalarining murakkablashishi, aholi turmush darajasining oshishi, shuningdek, insonning o'zini mukammallashtirishi, ya'ni ta'lim va madaniyat darajasini oshirishi hisobiga ishlab chiqarish va aholi ehtiyojlari izchil ravishda kengaytirilmoqda. Ushbu sabablarning umumiy ta'siri sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmatlar sohalari o'rtasida resurslar va mahsulotlar taqsimotidagi nisbatning sezilarli darajada o'zgarishiga olib keldi.

2019-yil 1-may holatiga ko'ra respublikamizda 19,3 mingta xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar qayd etilib, ularning umumiy (29,8 ming birlik) sonidagi ulushi 64,5 % ni tashkil etdi. O'tgan yilga nisbatan ularning soni 14,6 % ga oshdi.

2019-yil 1-may holatiga korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi, % (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)


2019 yil yanvar-aprel

2019-yil 1-may holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida eng yuqori ulushni savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar (40,8 %) tashkil etadi.

Yashash va ovqatlanish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 7,3 % ni tashkil etdi.

2019-yil 1-may holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yil yanvar-aprel


Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida yashash va ovqatlanish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 7,3 % ga yetdi.

Tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar ulushi 6,1 % ga teng bo'ldi. Sog'liqni saqlash sohasida faoliyat yuritayotgan va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi esa, 3,5 % ni tashkil etdi.

Ma'lumot uchun: 2018-yil 1-may holatiga xizmatlar sohasida 16,8 mingta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan. Ularning umumiy tarkibida savdo sohasida - 39,3 %, yashash va ovqatlanish sohasida - 7,2 %, tashish va saqlash - 5,8 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish - 3,3 %, axborot va aloqa - 3,0 %, boshqa turlarda - 41,4 % korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning sonini taqqoslasak, 2019-yil 1 may holatiga ularning soni 2,4 mingtaga ko'paydi.

2018-yilning mos davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ko'payishi, ming birlik (2019-yil 1-may holatiga)



Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)


2019 yil yanvar-aprel

Eng yuqori o'sish savdo faoliyati bilan shug'ullanadigan korxonalar va tashkilotlarda qayd etilib, 18,8 % ni tashkil etdi. Ularning soni 1,2 mingtaga ko'paydi. 2019-yil yanvar-aprel oylarida ushbu sohada yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 1,0 mingtaga yetdi, o'tgan yilga nisbatan bu ko'rsatkich 0,6 mingtaga oshdi.

Shu bilan birga, tashish va saqlash sohasida xizmatlar ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 15,7 % ga oshganligi qayd etilib, 0,2 mingtaga ko'paydi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019-yil yanvar-aprel oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 469,1 mlrd. so'mga oshib, 2819,0 mlrd. so'mga yetdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 111,1 % ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-aprel oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi, %



Xizmatlar sohasining rivojlanishi


(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yil yanvar-aprel

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida savdo xizmatlari 33,4 % ulush bilan yetakchi o'rinni egallaydi. 2018-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan ularning hajmi 126,9 mlrd. so'mga oshdi.

Bundan tashqari, eng katta ulushlar transport xizmatlari (22,5 %), moliyaviy xizmatlar (17,2 %), aloqa va axborotlashtirish (5,2 %), shaxsiy xizmatlar (4,3 %), shuningdek, ta'lim sohasidagi xizmatlarda (3,7 %) kuzatildi.

2018-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan ayrim xizmat turlari hajmining oshishi, mlrd. so'm



Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yil yanvar-aprel

2019-yil yanvar-aprel oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	2819,0	111,1
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	148,0	103,3
Moliyaviy xizmatlar	486,2	168,5
Transport xizmatlari	624,7	100,1
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	610,9	100,6
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	44,6	104,8
Savdo xizmatlari	940,7	104,2
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	89,9	107,3
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	103,1	112,5
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	42,7	116,1
Ijara xizmatlari	62,9	96,0
Kompyuter va ma'ishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	68,9	101,5
Shaxsiy xizmatlar	120,3	100,9
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	17,7	96,9
Boshqa xizmatlar	69,3	105,1


Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yil yanvar-aprel

Respublikamizda kredit siyosati bo'yicha olib borilayotgan islohotlarning davom ettirilishi moliyaviy xizmatlarning o'sishiga imkoniyat yaratdi. 2019-yil yanvar-aprel oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 168,5 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (116,1 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (112,5 %) hamda ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarda (117,6 %) qayd etildi.

2019-yil yanvar-aprel oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, %



Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)


2019 yil yanvar-aprel

Ma'lumot uchun: 2018-yil yanvar-aprel oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi 17,3 % ni, ta'lim sohasida – 3,6 % ni, ko'chmas mulk bilan bolg'liq xizmatlar sohasida esa - 1,6 % ni tashkil etgan.

Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutuvchi savdo sohasi ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi, shuningdek, tovarlarni ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga, ularning turlarini yaxshilanishiga va sifatini oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

2019-yil yanvar-aprel oylarida savdo xizmatlari hajmi 940,7 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 33,4 % ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-aprel oylarida savdo xizmatlarining tarkibi, %



Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, 2019-yil yanvar-aprel oylarida uning ulushi 81,8 % ni tashkil etdi.

Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 11,5 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda savdo xizmatlarining umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi 6,7 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan savdo xizmatlarining hajmi 126,9 mlrd. so'mga oshdi.

Zamonaviy biznesni amalga oshirish uchun zarur shart-sharoit hozirgi zamon infratuzilmasidan foydalanish hisoblanadi. Yirik bozorlar, Internet-savdo, xom-ashyo, komponentlar va texnologiyalarni izlash, reklama va marketing faoliyati, jarayon va texnologiyalar tizimini boshqarish, shuningdek raqamli tizimlarga xizmat ko'rsatish bo'yicha ixtisoslashtirilgan ma'lumotlar bazalari zamonaviy tashkilotning majburiy xususiyati hisoblanadi.


2019-yil yanvar-aprel oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 148,0 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ushbu turdagi xizmatlarning o'sishi esa 103,3 % ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 5,2 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari umumiy hajmida nashriyot xizmatlari katta qismni egallab, uning ulushi 44,9 % ni tashkil etadi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari umumiy hajmida shuningdek, kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar - 15,8 %, telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, va boshqalar) - 13,9 %, axborot sohasidagi xizmatlar - 12,5 % hamda televideniye dasturlari ishlab chiqarish, ovoz yozish va musiqa asarlarini nash qilish bo'yicha xizmatlar - 10,1 % ni tashkil etadi.

**2019-yil yanvar-aprel oylarida
aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, %**




Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari umumiy tarkibida eng kam ulushni dasturlar tuzish va teleradioeshittirishlar bo'yicha xizmatlar tashkil etadi. Joriy davrda ularning hajmi aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmida 2,8 % ni tashkil etdi.

2018-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati 4,8 % ga o'sdi, hajmi esa 5,9 mlrd. so'mga oshdi va 44,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi 90,9 % bilan ustunlik qiladi. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 9,1 % ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-aprel oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning tarkibi, %



- oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar
- Yashash bo'yicha xizmatlar

Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yil yanvar-aprel

Xizmatlar sohasini rivojlantirish ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish uchun eng muhim shartlardan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bozor islohotlarining ijobiy natijalari xizmatlar sohasini yanada rivojlantirish, ijtimoiy rivojlanishning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini hal etishda uning rolini oshirish bilan uzviy bog'liqdir.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo`limi

71-230-82-64